

QO‘QON ADABIY MUHITIDA G‘AZAL JANRINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TO‘G‘RISIDA AYRIM MULOHAZALAR

Axmadaliyev Lochinbek Maxamadyusuf o‘g‘li,

University of Business and Science

oliy ta‘lim muassasasi

til va adabiyot ta‘limi kafedrasi dotsenti v.b.,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Qo‘qon adabiy muhiti sharoitida g‘azal janrining o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari va ijtimoiy-madaniy bog‘liqligi tahlil qilinadi. Avvalo, g‘azal janrining umumiy normativ jihatlari – bayt tuzilishi, radif-makol qoidasiga rioya, misralarning mustaqilligi, ma‘nolarning murakkabligi va obrazlilik kabi jihatlari – Qo‘qon shoirlarining ijodida qanday talqin topgani misollar orqali ko‘rsatiladi. Umuman olganda, maqolada Qo‘qon adabiy muhiti va g‘azal janri o‘rtasidagi interaktiv aloqalarni ochib beriladi, g‘azaldagi mintaqaviy o‘ziga xosliklarni yangi badiiy-tahliliy mezonlar asosida aniqlashga harakat qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon adabiy muhiti, g‘azal janri, mumtoz adabiyot, bayt tuzilishi, tamsil, badiiy-tahlil.*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются особенности, тенденции развития и социокультурные связи жанра газели в литературной среде Коканда. Прежде всего, на примерах показано, как общенормативные аспекты жанра газели, такие как структура стиха, соблюдение правила радиф-макол, самостоятельность строк, сложность смыслов и образов, интерпретировались в творчестве кокандских поэтов. В целом, в статье раскрываются интерактивные связи между литературной средой Коканда и жанром газели, а также предпринимается попытка выявить региональные особенности газели на основе новых художественно-аналитических критериев.

Ключевые слова: *литературная среда Коканда, жанр газели, классическая литература, структура стиха, метафора, художественный анализ.*

ABSTRACT

This article analyzes the specific features, development trends and socio-cultural connections of the ghazal genre in the Kokand literary environment. First of all, it shows how the general normative aspects of the ghazal genre - such as the structure of the verse, adherence to the rule of radif-makol, the independence of lines, the complexity of meanings and imagery - were interpreted in the work of Kokand

poets through examples. In general, the article reveals the interactive connections between the Kokand literary environment and the ghazal genre, and attempts to identify regional specificities in the ghazal based on new artistic and analytical criteria.

Keywords: Kokand literary environment, ghazal genre, classical literature, structure of the verse, metaphor, artistic analysis.

KIRISH

Gʻazal (غزل) arabcha soʻz boʻlib, “ayollarga xushomad qilmoq” degan maʼnoni bildiradi¹. Ushbu leksema leksik janr nomemasiga aylangach, aruz vaznining bahrlarida yoziladigan, ishq-muhabbat mavzusidagi lirik sheʼrga nisbatan qoʻllanila boshlangan. Davrlar oʻtishi bilan ushbu janrning mazmumiy koʻlamida kengayish roʻy bergan. Boshqa mumtoz lirik janrlardan oʻziga xos xususiyatlari bilan farqlanishiga qaramay, xalq orasida ushbu atama umumiy sheʼr va qoʻshiq maʼnosiga oʻtib ketgan. Gʻazal atamasiga dastlabki mufassal taʼriflar Shamsiddin Muhammad Qays ar-Roziy², Rashiduddin Vatvot³ kabi buyuk soʻz sanʼatkorlari tomonidan berilgan boʻlsa, Abdurahmon Jomiy uning asosiy mazmunini ishqdan iborat boʻlishi lozimligini uqtiradi⁴. Alisher Navoiy esa unda “dard va soʻz” (ishq va ishq otashi) yetakchilik qilishini aytadi:

Ey Navoiy, sen-u Xusrav bila Jomiy tavri,

Sanʼat-u rangni qoʻy, soʻzda kerak dard ila soʻz⁵.

Alisher Navoiy, garchand, ishq dardi va ishq otashini yetakchi qilib koʻrsatsa-da, uning ijodi-da gʻazalning mavzu tabiati ancha kengayib ketdi. Aslini olganda turkiy adabiyotda gʻazal mazmunining boyib borishi Lutfiy ijodidan boshlangan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qabul Muhammad gʻazalning chegarasi 19 baytgacha, undan ortigʻini esa qasida deb ataydi⁶. Alisher Navoiy ijodida yetti va toʻqqiz baytli gʻazallar koʻpchilikni tashkil etadi. Eng kichik hajmli gʻazallar besh, eng yirik hajmli gʻazallar oʻn uch baytdan iborat. Yetti baytli gʻazali 1700ga yaqin. Shoirning oʻzi oʻz sheʼrlari, xususan, gʻazallari hajmi toʻgʻrisida shunday yozgan:

Navoiy sheʼri toʻqqiz bayt-u, oʻn bir bayt-u, oʻn uch bayt,

Ki lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin,

¹ Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – Москва, 1958. – С. 721.

² Шамсиддин Мухаммад Қайс ар-Розий. Ал-мўжам фи маойир ал-ашъор ал-Аъжам. – Техрон, 1897. – Б. 306.

³ Рашидуддин Ватвот. Ҳадоийқ ас-сехр фи дақойиқ аш-шеър. – Техрон, 1938. – Б. 28.

⁴ Абдурахмон Жомий. Баҳористон. – Душанбе: Ирфон, 1966. –С.33.

⁵ Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. III том. –Тошкент: Фан, 1960. – Б. 219.

⁶ Носиров О., Жамолов С., Зиёвуддинов М. Ўзбек классик шеърляри жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 13.

Bukim, albatta, yetti baytdin o'ksuk emas, ya'ni
Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin⁷.

G'azal lirik qahramonning ichki his-tuyg'ularidan tarkib topganligi bois chuqur lirizm bilan sug'oriladi. Ayni paytda, g'azalda umumlirik xususiyatlar ham mujassamlashadi. Masalan, qasidadagi madh, ruboiydagi falsafa, tuyuqning badiiy barkamolligi, tarji'band va tarkibbanddagi hayotiy mulohaza, qit'a va farddagi pand-nasihat, muammodagi kinoya, chistondagi hajvning g'azalda birlashganini ko'rish mumkin. Alisher Navoiy 27 ta g'azalida taxallus qo'llamagan. Nafaqat shoir ijodida, balki, umuman, g'azalnavislikda ramal bahri yetakchilik qiladi. Alisher Navoiyning 2600 g'azalidan 1600 ga yaqini ushbu vaznda bitilgan.

Muhammad Fuzuliy taqlidchilarni yosh bolalarga, ularning taqlidchilik yo'nalishidagi ijodini chavandozlarga taqlid qilib yog'och ot minishlariga o'xshatgan:

Muddai aylar mana taglid nazm-u nasrda,
Leyk namarbut alfaz-u mukaddar zati var.
Pahlivanlar badpalar sayr idanda hap yana,
Tufl ham chalan adar amma ag'achdan ati var.

Alisher Navoiy va Qo'qon adabiy muhiti vakillari g'azaliyotining o'xshash va farqli tomonlari:

1. Alisher Navoiy davrida g'azallarning sarlavhasi mavjud bo'lmay, radif, qofiya yoxud birinchi misra sarlavha vazifasini o'tagan bo'lsa, XVIII–XIX asrlar she'riyatiga kelib g'azallarga nom berish ham kuzatilib, bu holat, ayniqsa, hajviy she'rlarda ko'proq o'z aksini topgan.

2. Alisher Navoiy hajviy g'azallarida konkret bir shaxs emas, balki umumlashma shaxslar, yomon illatlar tanqid ostiga olingan bo'lsa, keyingi davr, xususan, Qo'qon adabiy muhiti vakillari hajviyasida adresaviylikni ko'rish mumkin. Bu, o'z navbatida, mazkur janr taraqqiyotida ushbu davrga kelib realizmning ancha bo'y ko'rsatganini ifodalaydi. Masalan, Maxmurning "Hapalak", "G'azali Muhammad Rajab Avj dar borai xud", "G'azali Hoji Niyoz", "G'azali louboli dar borai xud", "Dar sifati hakim Turobiy hazor xalta budur", "G'azal guftani mulla Ya'qub", "G'azali qoziyi Xoja sagbon" she'rlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

3. Qo'qon adabiy muhiti shoirlarining hajviyalari avtopsixologik lirikadan ko'ra ko'proq ijroviy lirikaga yaqin turadi. Ularda ifoda hajv qilinayotgan shaxsning tilidan bayon etilib, "iqrar etish" usulidan foydalaniladi. Bu esa davr she'riyatining folklorga yanada yaqinlashganligini ko'rsatadi. Chunki bu usul qadimdan xalq og'zaki poetik ijodiga xos sanalib kelingan.

⁷ Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. III том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 703.

4. Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodida bir vaqtning o‘zida uch buyuk so‘z san‘atkori: Alisher Navoiy, Abdulqodir Bedil va Muhammad Fuzuliy adabiy ta‘sirining sinkretiklashganiga guvoh bo‘lish mumkin. Jumladan, Muhammad Fuzuliy ta‘sirida Qo‘qonda bitilgan asarlar leksikografiyasiga ozarbayjoncha leksema va leksik birliklarning kirib kelganini ko‘rish mumkin. Bu holat mazkur muhitning barcha shoirlarida ko‘rinadi.

Qo‘qon adabiy muhitida g‘azalnavislikning o‘ziga xos turlaridan biri g‘azali mushoira sanaladi. Mushoiralar g‘azaldan tashqari, musammatlar, asosan, muxammaslar ko‘rinishida ham bitilgan. Lekin ushbu turlar ichida g‘azali mushoira davr adabiy muhitida alohida o‘rin tutgan. Qo‘qon adabiy muhitida yaratilgan mushoiralar quyidagi xarakterli xususiyatlarga ega bo‘lgan:

1. Ikki va undan ortiq shoirlar tomonidan bir vaqtda yaratilgan.
2. Mushoira lirik turning qaysi janrida boshlangan bo‘lsa, o‘sha janrda davom etib, shu janrda yakun topgan, ya‘ni janrda o‘zgarish yuz bermagan.
3. Davr mushoiralarda, odatda, qaysi bayt yoki band kimga tegishli ekanligi yaqqol sezilib turadi.
4. So‘z yuritilayotgan davr mushoiralarida har bir muallifga tegishli bayt va bandlar umumiy mavzu, vazn va qofiya masalalaridan tashqari o‘zicha mustaqil bo‘ladi, ya‘ni har bir bayt yoki band umumiy mavzuning alohida qirrasini ochishga qaratilgan bo‘ladi.
5. Mushoiralar juda ko‘p o‘rinlarda badihago‘ylik va imperavizatorlik asosida paydo bo‘lgan.
6. Mushoiralar ma‘lum bir aniq sharoitning hosilasi sanalib, mavjud vaziyatda in‘ikos etgan voqea-hodisa yoxud jarayonni o‘zida ifoda etgan.

Qo‘qon adabiy muhitida yaratilgan mushoiralar so‘zlarning qo‘llanilishi, voqea-hodisalarning bayoni nuqtai nazaridan xalq og‘zaki ijodiga yaqin turadi. Mazkur muhitda mushoiralarga alohida diqqat-e‘tibor bilan qaralgan. Amiriy, Xon, Nodira kabi adabiyot homiylari huzurida yoxud shoirlarning uylarida o‘zaro tashkil etilgan adabiy bahslarda shoirlardan birining boshlagan she‘rini boshqa shoir badiha usulida davom ettirar, unga oldingi shoir yoxud uchinchi shaxs javob qaytarar, mavzudan uzoqlashib qolingani o‘rinlarda imperavizatsiyaga murojaat qilinar, g‘olib shoir yoxud barchasi tahsinga sazovor topilib, mukofotlanar edi. Boshqa adabiy muhitlarda yaratilgan mushoiralarning katta qismi saqlanib qolmagani: devon, majmua, bayoz va tazkiralarga kirmagani holida qo‘qonlik ijodkorlarning mushoiralari aksariyat asosiy qismi bizgacha saqlanib qolgan. Bu esa ushbu muhitda, umuman, she‘riyat, qolaversa, mushoiralarga ham alohida diqqat qilingani, shu biln bir qatorda, mazkur muhit namoyandalarining mushoiralari g‘oya va badiiyat

tarafidan ancha barkamol ishlangani, keng xalq ommasi hamda adabiyot muhiblari ko'nglidan chuqur joy olganligini ko'rsatadi. Fazliy va Mahzuna o'rtasidagi quyidagi mushoira g'azali mushoiraning go'zal namunasi sanaladi⁸:

Fazliy: Yuz ofarin so'zingga "Lubbi lubob" ko'rmay,

Arzi jamol etarmu oyina ob ko'rmay?

Senga ming rahmatlar bo'lsin, chunki "Lubbi lubob"ni ko'rmay ham shunday go'zal so'z aytgan ekansan. Ammo suv bilan yuvilmagan ko'zgu (oyina) go'zallikni qanday aks ettira olsin?" Bu o'rinda "Lubbi lubob" deganda Muhammad Avfiy Buxoriyning 1223-yilda yozilgan "Lubob ul-albob" tazkirasi nazarda tutilgan. Dehli sultonligini boshqargan turkiy sulola – Oyboqiylar vakili Shamsuddin Eltutmish saroyida nihoyalangan, fors-tojik tilida bitilgan ilk tazkira, XIII asr mo'g'ullar bosqinidan omon qolgan yagona tazkira kabi ko'plab sifatlari bilan bir qatorda, ushbu asar o'zining poetik xususiyatlari bilan originallik kasb etadi. Fazliyning ushbu tazkiraga yuqori baho berishi ham shundan. Qolaversa, ushbu fakt uning o'z tazkirasini tuzishda ushbu manbaga murojaat etganligini ham ko'rsatadi. Umuman olganda, "Majmuai shoiron"ning strukturaviy tuzilishida "Lubob ul-abob"ning ta'siri masalasi anchagina bo'lib, ushbu jihatning o'zi ham alohida tadqiqot obyekti bo'la oladi. Shuningdek, mushoiraning ushbu bayt bilan boshlanishi bundan oldin Mahzuna tomonidan Fazliyni lol qoldirgulik fikr atilgani, bahs-munozara avvalroq dialog ko'rinishida boshlanib, so'ng she'riy ko'rinish tus olganligini ko'rsatadi. Yoinki ushbu baytdan quyidagicha tasavvur ham paydo bo'ladiki, buni ham inkor qilish qiyin. Fazliy Mahzuna bilan suhbat qurishdan oldin uning she'rlari bilan obdon tanishib chiqqan. Shoira she'rlarining badiiy mukammalligi Fazliyni hayratga solgan. Ayni shu sabab uni shoira bilan tanishishga undagan. Shu tufayli unga ushbu bayt bilan murojaat etgan bo'lishi ehtimoli ham yo'q emas.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur mushoira boshdan-oyoq tamsil ustiga qurilgan. Bu holat ham Qo'qon adabiy muhitidagi shoirlar ijodining o'ziga xosligi sanaladi. To'g'ri, tamsil asoslangan g'azallar bu davrga qadar ham mavjud edi. Mavlono Lutfiyning "Ayoqingg'a tushar lar lahza gisu..." misrasi bilan boshlanadigan g'azali buning go'zal namunasi sifatida mumtoz adabiyotimiz xazinasini boyitgan. Lekin mushoiraning ushbu san'at asosiga qurilganligi adabiyotimiz tarixiga yangilik bo'lib kirdi. Birinchi baytning o'zidayoq Fazliy o'zining ilk misradagi fikriga asos sifatida oynani suv bilan yuvmasang u jamolni aks ettirolmaganidek, sen ham "Lubbi lubob"ni o'qimay bunday purma'no fikrlarni aytishing mumkin emas demoqda.

Mahzuna: Kimdin chiqar bu so'zlar bag'rin kabob ko'rmay,

⁸ Увайсий. Махзуна. Нодира. Шеърлар. – Тошкент: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1958. – Б. 40.

Ganj ko‘rmag‘ay muyassar holing xarob ko‘rmay.

Baytda lirik qahramonning holati badiiy ifoda etilgan bo‘lib, yuqoridagi baytdagi hayratomuz xulosaning izohi sifatida bunday so‘zlar bag‘ri kabob kabi dard-sitamlarda kuyib-pishgan insondan chiqishligi aytilgan. Ya‘ni, chin ma‘nodagi so‘z, chin dard bilan aytilgan so‘zgina samimiy va ta‘sirli bo‘ladi. Yana ham boshqacha qilib aytganda, bag‘ri kabob bo‘lmagan – iztirobni, dardni tatib ko‘rmagan insonning so‘zi chin ma‘noda ta‘sirli chiqmaydi. Muallifning ta‘kidicha, dard-u azoblarda toblangan inson “Lubob ul-abob”siz ham bunday so‘zlarni bemalol aytishi mumkin. Ikkinchi misrada ushbu baytga tamsil sifatida xalqimiz orasida keng tarqalgan qadimiy naql: “Xazina xarobada bo‘ladi” misoli keltirilgan. Ya‘ni, lirik qahramon mening qalbim dard-u sitamlardan xarobaga o‘xshab qolganligidan xazina kabi purma‘no so‘zlar bemalol chiqaveradi demoqda. Ushbu misradan mashaqqat va sinovsiz holatdagi inson uchun “ganj” (ya‘ni xazina, saodat, komillik) muyassar bo‘lmasligini ta‘kidlaydi. Ya‘ni hayotda qimmatli natijaga erishish uchun ham dard, mehnat va iztirob zarur.

Baytning asosiy g‘oyasi dard, iztirob va tajriba orqali inson kamolotga yetadi, shoirning so‘zi esa ruhiy iztirob bilan yo‘g‘rilgandagina samimiy bo‘ladi. Bu g‘oya Sharq adabiyotida keng uchraydigan “dard – ilhom manbai” tushunchasini yodga soladi. Faqat dardni his etgan qalb so‘zida haqiqiy san‘at paydo bo‘ladi, so‘z “jon” oladi. Baytda so‘z va dard o‘rtasidagi ichki bog‘liqlik tasvirlangan. Shoir uchun so‘z – dardning tili, dard – so‘zning ruhi. Iztiropsiz so‘z go‘zallikka yetolmaydi.

Fazliy: Masturai suxang‘a po‘shidalig‘ munosib,

Ma‘ni arusin, bas, men beniqob ko‘rmay.

“Masturai suxan” – “parda ortiga yashiringan so‘z”. Fazliy ushbu bayti orqali so‘zni ochiq-oshkora aytavermaslik kerak. Ma‘no nozikligi, ichki qochirim, botiniy ma‘no saqlanmog‘i kerak. Ayol kishining nafaqat o‘zi, balki so‘zida ham o‘ta darajada ochiqlik yarashmaydi. “Ma‘ni arusi” deyish orqali ma‘noni kelinchakka o‘xshatyapti. Bilamizki, kelinchak tortinib, xijolat bilan iboli, hayoli holatda turadi. Qolvaersa, biror o‘zbek kelinchagini ochiq kiyingan holatda ko‘rib bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqib shoir ma‘no kelinchagini beniqob holatda ochib tashlama, deya kelinchaklar bilan bog‘liq holatni misol sifatida keltirmoqda.

Mahzuna: Yo‘q aybi so‘zlarimni, gar bo‘lmasa muaddab,

Andoqki, o‘t ko‘karmas, hech oftob ko‘rmay.

Yuqoridagi baytga javoban aytilgan ushbu misralarda shoira ey odob egasi, so‘zlarimning aybi yo‘q, ya‘ni so‘zlar ham ba‘zan oshkor aytib turilishi kerak. Shunda ularning ichki imkoniyatlari to‘liq namoyon bo‘ladi deb, ushbu fikrini maysa quyoshni ko‘rmasa ko‘karmasligi (o‘smasligini) misol qilish orqali dalillamoqda.

Fazliy: Maygun labing hadisi mast etdi g'oyibona,
Kayfiyat o'ldi zohir, jomi sharob ko'rmay.

Maygun lab – mayga (sharobga) o'xshash qizil lab, ya'ni ma'shuqaning jozibali, mast qiluvchi labi. Hadis – so'z, gap. Fazliy Mahzunaning ushbu fikrlaridan so'ng hayratini izhor qilmoqa. Sening lablaringdan chiqayotgan so'zlar meni g'oyibona mast ayladi, bu xuddiki sharob jomi olib kirilmasidan oldindanoq uni ichmoqchi bo'lganlar kayfiyatining ko'tarilishiga o'xshaydi.

Mahzuna: Bir vajhi buki, ta'bim xom asramish zamona,
Charxi sipehrdin ul pech-u tob ko'rmay.

Bir sababim (bir kamchiligim) shuki, ta'bimni zamona xom asragan. Muallif bu o'rinda o'zining sodda, ishonuvchanligini, ya'ni buning ortidan ko'p pand yeganligini nazarda tutmoqda. Yana ham boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, lirik qahramon ta'bim (kayfiyatim, ruhiyatim) zamon (dunyo, vaqt) tomonidan xom, begona qilib yuborilgan, zamon meni achchig', dardli, iztirobli qildi".Tamsil esa nihoyatda go'zal tanlangan: xuddiki, qalin soch ostida qolgan jismga quyosh tegmagani kabi.

Fazliy: Mundoqki, nuktadonsan, kim erdi ustoding?
Oy kasbi nur qilmas, to oftob ko'rmay.

Bu kabi nuktadon (notiq, so'zga usta, so'zning eng nozik nuqtalarigacha ustalik bilan fahmlovchi) ekanligingning sababi nimada? Axir, nur taratish oyning vazifasi emas. Garchand, undan nur chiqayotgan bo'lsa-da, aslida u quyosh nurlarini qaytarayotgan bo'ladi. Ya'ni nur masalasida quyosh oyga ustozlik qiladi. Shunday ekan senga ham she'riyat bobida kimdir ustozlik qilgan bo'lishi lozim? Boshqacha qilib aytganda, sening shu bilim, fahmiy nazokat va nuktadon bo'lgan sezimingni kim tarbiyalagan, kim senga ilhom bergan?

Mahzuna: Ko'p nahrlar yig'ilsa, daryoyi purdur o'lg'ay,
Ilm ahlidin bu miskin bir shayx-u shob ko'rmay.

Ushbu baytning boshqalaridan farqli jihati shundaki, har bir baytda oldin fikr aytilib, so'ng unga hayotiy misol taqdim etilgan bo'lsa, mazkur baytda oldin tamsil so'ngra yuqoridagi savolga javob tarzida shoironing qarashi tadqim etilgan. Unga ko'ra, ko'p daryolar bir-biriga qo'shilib, dengizga aylanadi. Oddiy dengiz emas, balki "daryoyi purdur". Ma'lumki, dengizlar o'z tubida ko'plab dur-u javohirlarni jamlaydi. Shoir ta'rifa;layotgan dengiz esa, bunday durlar bilan to'la. Buning asosida esa tarqoq holdagi daryolar yotadi. Mana shunday daryolarni bir joyga yig'ish orqali o'z bag'riga ko'p xazinani jamlay olgan dengiz kabi shoira ham hayotiy voqealardan saboq olish orqali purma'no xulosalar chiqara olgan.

Fazliy: Bir nukta ayla zohir, Fazliyni qo'yma Mahzun,

To ketmayin Namangon, sendan javob ko'rmay.

Shoiraning so'zlaridan ta'sir hayrati yana ham ortgan Fazliy Mahzunadan yana bir nukta (hikmat)ni zohir aylashini kutmoqda. Sendan manfaatli bo'lgan yana bir javob (hayotiy xulosa)ni eshitmay o'z yurtim – Namanganga ketib qolmay demoqda. Ya'ni, Mahzun, sen bir nozik, ma'noli iborani ochib ber, ko'rsat, Fazliyni o'z hikmatlaridan bebahra qoldirib, uni mahzun holatga solma deya ta'kidlamoqda.

Yuqorida Fazliy Mahzunani so'zlarni beparda ishlatishda aybalagan bo'lsa, bu o'ringa kelib so'z ma'nisini zohir qilishini o'zi so'ramoqda. Bu ham uning shoira she'riy mahoratiga tan berganligidan dalolat beradi. Baytning birinchi misrasida "Mahzun" so'zi ittifoq san'atini yuzaga chiqargan bo'lib, ham shoiraning taxallusi, ham mahzun kayfiyat ma'nosini ifodalab kelmoqda. Qolaversa, bu o'rinda "Namangon" so'zi talme'h vazifasida kelgan bo'lib, uni o'qishi bilanoq o'quvchining xotiriga Abulkarim Fazliyning aslida Namangan shahridan ekanligi, Qo'qonga ko'chib kelganligi, Amiriy davridagi she'riyat keladi. Savol-javobning go'zal namunasi sanalgan ushbu she'r poetik nido san'atiga ham yorqin dalil bo'la oladi. Oldingi misralarda bilvosita poetik nido qo'llanilgan bo'lsa, ushbu va undan so'nggi baytda ochiq-oshkor undalmadan foydalanilgan.

Mahzuna: Baytu-l-hazan ichinda uzlat tutib bu, Mahzun,
Fazliy, ilohiydur bu, yo'qsa kitob ko'rmay.

She'riy san'atlarni bir safga qator qilib tizgan ushbu baytda talme'h, tanosub, ishtiyoq, poetik nido, ittifoq badiiy tasviriyl vositalari san'atkorona qo'llanilgan. "Baytu-l-hazan" jumlasida "g'am uyi" ma'nosini anglatib, Ya'qub (a.s.) o'g'li Yusuf (a.s.)dan judo bo'lgach, o'zi uchun alohida bir uy yasab, u yerga kirib olib tinmay yig'lab o'tirgan ekanlar. Ko'p yig'laganlaridan ko'zlari ko'rmas holatga kelib qolgan. Mana shu uyni hazrat alayhissalom "bayt ul-hazan" – "g'am uyi" deb atagan. Shoira ham o'zini mana shunday g'am uyida uzlat tutishi natijasida shu darajaga yetganligi aytib, bu holatni ilohiy fazl deb atamoqda. Buning izohi sifatida aytmoqdaki, agar fazli ilohiy bo'lmasa, kitob ko'rmay turib shu qadar nozikta'b va badiiy did egasi bo'lish mumkinmi? Bu o'rinda shoira nima uchun o'ziga "Mahzuna" taxallusini qo'llaganligini ham izohlab ketmoqda. Qolaversa, Mahzuna so'zi ham. Fazliy so'zi ham ittifoq holida qo'llanilgan bo'lib, bir baytda ushbu san'atning ikki marta qo'llanilishi kamdan-kam uchraydigan holat.

XULOSA

Umuman olganda, she'r o'ta mohironalik bilan bitilgan bo'lib, bu o'z navbatida, Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari ijodining o'ziga xosligini ko'rsatish bilan birga, ushbu adabiy muhitning xarakterli tomonlarini ham ochishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – Москва, 1958. – С. 721.
2. Шамсиддин Мухаммад Қайс ар-Розий. Ал-мўжам фи маойир ал-ашъор ал-Аъжам. – Техрон, 1897. – Б. 306.
3. Рашидуддин Ватвот. Ҳадоийқ ас-сехр фи дақойиқ аш-шеър. – Техрон, 1938. – Б. 28.
4. Абдурахмон Жомий. Баҳористон. – Душанбе: Ирфон, 1966. – С. 33.
5. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. III том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 219.
6. Носиров О., Жамолов С., Зиёвуддинов М. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 13.
7. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. III том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 703.
8. Увайсий. Маҳзуна. Нодира. Шеърлар. – Тошкент: ЎзССР Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1958. – Б. 40.
9. MADALIYEVA, Z. (2021). WILLIAM FIERMANS SCIENTIFIC VIEWS ON TWENTIETH-CENTURY UZBEK LITERATURE. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 1335-1338.
10. Ermanbetova, S. (2024). POETIC SYNTAX IN THE POETRY OF HABIB SADULLA. *Академические исследования в современной науке*, 3(40), 190-194.
11. Эрманбетова, Ш. Б. (2024). ҲАБИБ САЪДУЛЛА ШЕЪРИЯТИДА ПОЭТИК СИНТАКСИС. *GOLDEN BRAIN*, 2(16), 19-25.
12. Iskandarova, M., & Usmonov, X. (2024). CLINICAL-DIAGNOSTIC FEATURES AND COMPLEXITY OF TREATMENT IN THE COMORBID COURSE OF PULMONARY TUBERCULOSIS AND MALIGNANT TUMORS. *Академические исследования в современной науке*, 3(33), 55-57.
13. Ermanbetova, S. B. (2020). WHEN I CAME OUT OF THE STREET. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(10), 314-318.
14. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI (2-QISM). *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 3(9), 18-20.
15. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(11), 79-80.

16. Xabibillayev, N. (2024). HOZIRGI O ‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA RAVISH MASALASI (1-qism). *Молодые ученые*, 2(22), 17-22.
17. Xabibillayev, N. (2024). AZIM HOJIYEVNING MORFEMA BORASIDAGI QARASHLARI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(8), 21-26.
18. Habibullayev, N. N. O. G. L., & QOZOQ, V. O. Z. T. M. (2023). SO'ZLAR CHOG'ISHTIRMASI.
19. Xabibillayev, N. (2024). Mumtoz Adabiyotni Targ ‘Ib Etishda Adabiy Moslashtirishning Ahamiyati (—Lison Ut-Tayrl Ning Moslashtirilgan Matni Misolida). *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 16, 65-71.
20. DILMUROD, A., & SHOIRA, B. (2025). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI (“Alpomish” dostoni asosida). *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(6), 191-199.
21. Iskandarova, S., Kuziyev, U., Ashurov, D., & Rakhmatullayeva, D. (2024, November). Advancing Natural Language Processing: Beyond Embeddings. In *2024 International Conference on IoT, Communication and Automation Technology (ICICAT)* (pp. 792-796). IEEE.
22. Ashurov, D. A. (2019). THE LINGVOCULTURAL CHARACTERICS OF COLOR COMPONENT PHRASEOLOGIES IN THE VERSION OF “ALPOMISH” EPIC. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 279-282.
23. QOBILOVA, Z., & AHMADALIYEV, L. (2025). “O ‘ZBEK ADABIYOTI NAMUNA DAFTARI” TAZKIRASIDA ALISHER NAVOIY FAOLIYATINING YORITILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 183-189.
24. Ahmadaliyev, L. (2025). QAYUMOVLAR SULOLASI UY-MUZEYINI TASHKIL ETISHNING AMALIY AHAMIYATI. *University Research Base*, 382-398.
25. Ahmadaliyev, L. (2025). “O ‘ZBEK ADABIYOTI NAMUNA DAFTARI” TAZKIRASINING ADABIY AHAMIYATI. *University Research Base*, 360-367.
26. Lochinbek, A. (2022). “XO ‘QAND TARIXI VA UNING ADABIYOTI”—MANBA SIFATIDA. *OLIIY VA O ‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI*, 250.
27. Muhammadyusuf o‘g‘li, A. L. (2024). KULFAT IJODINING O ‘RGANILISHI. *UBS Scientific Bulletin*, (4), 94-105.
28. Mengliev, D., Nabiyeva, D., Abdurakhmonov, A., Makhmudov, K., Nuritdinov, A., & Otemisov, A. (2025, June). Educational Text Analysis in Uzbek: Developing an NER Algorithm for Academic and Pedagogical Content. In *2025 IEEE 26th*

International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM) (pp. 2100-2103). IEEE.

29. Nuritdinov, A. (2025). MATNLARNI LINGVOSTATISTIK TAHLIL QILISHDA KORPUS USULLARIDAN FOYDALANISH. *Молодые ученые*, 3(19), 93-97.

30. Nuritdinov, A. (2025). KONKORDANS–LINGVISTIK TAHLIL VOSITASI SIFATIDA. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(13), 173-178.

31. Nuritdinov, A. (2025). Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(5).

32. Nuritdinov, A. (2024). JADID DAVRI ADABIY MUHITIGA DOIR ASARLARDAN KORPUSDA FOYDALANISH. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).

33. Nuritdinov, A. (2022). O 'ZBEK TILI KORPUSI UCHUN ABDURAUF FITRATNING LINGVISTIK ASARLARINI MANBA SIFATIDA OLINISHI. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).

34. Nuritdinov, A. S. O. G. L. (2022). O'zbek tili milliy korpusi uchun jadid tilshunoslarining lingvistik asarlarini manba sifatida olinishi. *Science and Education*, 3(4), 2048-2057.